

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT
KADASTRI FANIDAN MALAKA TEST SINQVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DAVLAT KADASTRI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Davlat kadastri fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Davlat kadastri

1. Yer huquqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi yer kodeksi.
3. Yer fondi.
4. Yer tuzish
5. Yerga bo‘lgan mulkchilik. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlari.
6. Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorininng huquq va majburiyatlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Yer huquqi	Davlat kadastrida yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari va kadastr asoslari borasida kerakli bilim va ko'nikmalar shakllantirish maqsadida ma'lumotlar berilgan. Yerdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va yer uchastkalarining tarkibida, yer uchastkalaridan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlar to'g'risida tegishli organlar orqali ma'lumotlar keltirilgan.	20 ta
2	O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi.	O'zbekiston Respublikasi yer to'g'risidagi qonunchiligining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy mihitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqli asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.	10 ta
3	Yer fondi	Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi. Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish va bir toifadan boshqasiga o'tkazish viloyatlar hamda toshkent shaxar hokimliklari tomonidan amalga oshiriladi.	2 ta
4	Yer tuzish	Yer tuzish yerlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.	2 ta

5	Yerga bo'lgan mulkchilik. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari.	Yuridik shaxslar ushbu kodeksga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq mulk, doimiy foydalanish va ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lishi mumkin. Birgalikda egalik qilinadigan yoki foydalaniladigan yer uchastkalari. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqning boshqa shaxsga o'tishi. Yer uchastkalarini berish. Yer uchastkalari ijarasi.	2 ta
6	Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorininng huquq va majburiyatlari.	Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlari. Yer egalari, yerdan foydalanish, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari huquqlarining cheklanishi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlari.	5 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test

4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
----	----	--

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M.B.Usmonov.Yer huquqi.Darslik.Toshkent.O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2002

2. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi.2023

3. Q.Raxmonov, B.Uspankulov.Davlat kadastr asoslari.Toshkent 2018

4. A.Bobojonov, K.R.Raxmonov.Kadastr. Toshkent 2023

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.